

**“Urban.Tech Uzbekistan (UTU)” hakatoni musobaqasini tashkil etish,
o‘tkazish va g‘oliblarni tanlab olish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom mamlakatimiz rivojlanishi uchun ustuvor bo‘lgan sohalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ilmiy yechim izlab topishda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishlari uchun ularning tashabbuslari va takliflariga davlat e‘tiborini yanada kuchaytirish maqsadida o‘tkaziladigan **“Urban.Tech Uzbekistan (UTU)”** hakatoni musobaqasini (keyingi o‘rinlarda musobaqa deb yuritiladi) tashkil etishni, o‘tkazish tartibini, arizalarni qabul qilish hamda baholash mezonlari va metodikasini belgilaydi.

2. Mazkur musobaqa Innovatsion rivojlanish agentligi (Keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tomonidan tashkil etiladi, o‘tkaziladi hamda g‘oliblari aniqlanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

3.1. **“Urban.Tech Uzbekistan (UTU)” hakatoni** – mamlakatimiz rivojlanishi uchun ustuvor bo‘lgan sohalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ilmiy yechim izlab topishda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash, yangi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqishlari uchun ularning tashabbuslari va takliflariga davlat e‘tiborini yanada kuchaytirish maqsadida o‘tkaziladigan musobaqa.

Ushbu musobaqa 48 soatdan kam bo‘lmagan va 72 soatdan ko‘p bo‘lmagan muddatda tashkil etiladi.

3.2. **Tashkilotchi** – Agentlik (keyingi o‘rinlarda tashkilotchi deb yuritiladi).

3.3. **Ishtirokchi** – musobaqada qatnashish uchun arizalarni qabul qilish boshlangan kuni 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan, o‘z nomidan ish yuritadigan jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda ishtirokchi).

3.4. **Jamoa** – a‘zolari soni to‘rt kishidan iborat bo‘lgan musobaqaning faqat bir yo‘nalishi bo‘yicha ishtirok etadigan ishtirokchilar guruhi. Bir ishtirokchi faqat bitta jamoa a‘zosi bo‘lishi mumkin. Jamoa tarkibi agar uzrli sabablar mavjud bo‘lmagan taqdirda o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.5. **Jamoa sardori** – musobaqada ishtirok etish uchun ariza topshirgan va jamoa shakllantirishga mas‘ul bo‘lgan ishtirokchi.

Jamoa sardori musobaqada ishtirok etadigan jamoa tarkibini shakllantiradi hamda jamoa a‘zolari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etishga mas‘ul hisoblanadi.

3.6. **Musobaqa rasmiy veb-sayti** – musobaqa to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladigan, ishtirok etmoqchi bo‘lgan jamoalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, ishtirokchilarning arizalarini yig‘ish uchun tashkil etilgan va urbantech.uz manzili orqali faoliyat yuritadigan axborot resursi.

3.7. **Raqamli mahsulot va/yoki xizmat** – biror dasturlash tili yordamida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot.

3.8. **Musobaqa komissiyasi** — musobaqa tashkilotchisi tomonidan musobaqa boshlanishidan oldin tashkil etiladigan va tashkilotchining vakillarini, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlar vakillaridan tashkil topgan hamda musobaqada ishtirok etadigan jamoalarni baholash va g‘oliblarni aniqlash vakolatiga ega kollegial organ.

3.9. **Vazifa** – komissiyasi tomonidan tanlab olingan, mazkur musobaqaning biror bir yo‘nalishiga mos bo‘lgan hamda jamoalar tomonidan bajarilishi kerak bo‘lgan muammo.

3.10. **Ariza** – musobaqada ishtirok etish uchun musobaqa rasmiy veb sayti orqali jamoa sardori tomonidan elektron tarzda to‘ldirilgan ariza shakli, unga ishtirokchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va hujjatlar ilova qilinadi.

3.11. **Prototip** – bu musobaqa uchun tanlab olingan vazifalardan birini hal qilishga imkon beruvchi raqamli mahsulot va/yoki xizmat namunasi.

3.12. **Loyiha** – zamonaviy texnologiyalar, dasturlash tillari hamda boshqa zaruriy resurslardan foydalanilgan vazifani yechish tartibi va uning prototipi.

3.13. **G‘olib** – baholash mezonlari asosida musobaqa komissiya tomonidan eng yuqori ball qo‘yilgan va biror bir yo‘nalish bo‘yicha vazifaga eng yaxshi loyiha ishlab chiqqan jamoa.

4. Musobaqa **vazifasi** O‘zbekiston bozoridagi turli sohalardagi innovatsion loyihalarni topish va tanlash, ularning sifati va investitsiya jozibadorligini oshirish, shuningdek, eng yaxshi loyihalarni ishlab chiqish uchun o‘ziga xos yo‘nalishlarni shakllantirish hamda mavjud jarayonlarni takomillashtirish va yangi innovatsion yechimlarni topish hisoblanadi.

5. Musobaqa tashkilotchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, musobaqa qoidalari va shartlari, ro‘yxatdan o‘tish shartlari, musobaqada qatnashish uchun ariza berish to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar musobaqa rasmiy veb saytga joylashtiriladi.

5.1. Tashkilotchi musobaqa qoidalarini o‘z ixtiyori bilan bir tomonlama o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi va ushbu o‘zgartirishlar musobaqa rasmiy veb saytida e’lon qilish orqali amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar musobaqa rasmiy veb saytida e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

II. MUSOBAQA YO‘NALISHLARI

6. Musobaqa quyidagi yo‘nalishda o‘tkaziladi:

6.1. **Social Tech (Ijtimoiy hayotdagi texnologiyalar)** - Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ijtimoiy faollik va ijtimoiy texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq yechimlar ishlab chiqish;

6.2. **Enterprise Tech (Boshqaruv va menedjmentdagi texnologiyalar)** - Ko'p turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi orqali korxonalar boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish;

6.3. **Industry Tech (Sanoat va ishlab chiqarish texnologiyalari)** - Sanoat va ishlab chiqarishda avtomatik boshqaruv tizimlari, robototizatsiya va SI asoslari;

6.4. **Health Tech (Tibbiyot texnologiyalari)** - Tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimini AKT yordamida rivojlantirish, tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish va sun'iy intellekt yordamida tashxis qo'yish va boshqalar;

III. ISHTIROKCHILARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

7. Musobaqalarda ishtirokchilar faqat jamoa shaklida ishtirok etishlari mumkin.

8. Musobaqada ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar:

8.1. 18-30 yosh oralig'idagi jismoniy shaxs;

8.2. Jamoasi bo'lmagan taqdirda tashkilotchi tomonidan tuzilgan jamoada ishlashga roziligi.

9. Musobaqada jamoalarga qo'yiladigan talablar:

9.1. Jamoada to'rt kishi bo'lishi lozim;

9.2. Jamoaning barcha a'zolari 18 yoshdan katta va 30 yoshdan kichik ikerak;bo'lish

9.3. Jamoadagi a'zolar quyidagilardan birini bajarishi zarur:

– front-end dasturlash;

– back-end dasturlash;

– full-stack dasturlash;

– AI/ML bo'yicha mutaxassis;

– UI/UX-dizayni;

– grafik dizayni;

– Android dasturlash;

– iOS (Swift) dasturlash;

– muhandis dasturlash;

– tahlil;

– marketing;

– biznes tahlil;

– loyiha menejer.

9.4. Ishtirokchi faqat bitta jamoa a'zosi bo'lishi mumkin;

9.5. Jamoa jamoa sardoriga ega bo'lishi kerak.

IV. ISHTIROKCHILAR VA TASHKILOTCHINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

10. Ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlari:

10.1. Ishtirokchilar quyidagi huquqlarga ega:

– ushbu Nizomda belgilangan qoidalar va talablarga muvofiq barcha musobaqalarda ishtirok etish;

– musobaqa qoidalari va talablari to‘g‘risida ma’lumot olish;

– musobaqada ishtirok etishdan bosh tortish.

10.2. Ishtirokchilar ushbu Nizomda belgilangan barcha qoida va talablarga qat’iy rioya qilishga majburdirlar.

11. Tashkilotchining huquq va majburiyatlari:

11.1. Tashkilotchi quyidagi huquqlarga ega:

– ishtirokchilardan ushbu Nizom qoidalariga rioya qilishni talab qilish;

– ishtirokchilar tomonidan musobaqa shartlari buzilgan taqdirda, har qanday shaxsni yoki jamoani musobaqadan chetlashtirish;

– ushbu nizomda nazarda tutilgan holatlardan tashqari ishtirokchilar bilan og‘zaki yoki yozma muzokaralar kirishmaslik;

– amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki musobaqani bekor qilish. Bu to‘g‘risidagi ma’lumotlarni musobaqa rasmiy veb saytiga joylashtirish;

– musobaqani o‘tkazish sanasi va joyini o‘zgartirish va bu haqida musobaqa rasmiy veb saytida joylashtirish orqali e’lon qilish;

– ishtirokchilarning xabardor qilmasdan va ularning roziligini olmagan holda axborot va reklama maqsadlari uchun natijalar tavsifini tahrirlash va nashr etish;

– ishtirokchilar tomonidan ma’lumotlar soxtalashtirilayotgani yoki musobaqada ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zgartirishdan foyda olayotgani aniqlangan yoki shubha uyg‘otgan taqdirda ishtirokchilarga sabablarni tushuntirmasdan va ular bilan yozishmalarga kirishmasdan, o‘z ixtiyori bilan, ishtirokchilarning har qanday harakatlarini bekor qiladi, shuningdek tashkilotchi unga nisbatan shubha tug‘diradigan har qanday ishtirokchiga yoki jamoaga musobaqada keyingi ishtirok etishni taqiqlaydi.

11.2. Tashkilotchi quyidagilarga javobgar hisoblanmaydi:

– kutilmagan holatlar sababli musobaqani keyinga qoldirish, nosozliklar yuzaga kelishi yoki yuzaga kelgan boshqa o‘zgarishlar uchun;

– ishtirokchilar tomonidan ushbu Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganligi (o‘z vaqtida bajarilmaganligi) uchun;

– ishtirokchilarni ushbu Nizom talablari bilan tanishtirmaganligi uchun;

– musobaqa ishtirokchilariga bevosita xizmat ko‘rsatuvchi aloqa (telefon va Internet) tashkilotchisining nosozliklari va boshqa texnik muammolari uchun;

– musobaqa davomida yuzaga kelgan internetdagi va/yoki aloqa kanallaridagi texnik muammolarga hamda firibgarliklar natijasida ishtirokchilardan to‘liq bo‘lmagan va/yoki noto‘g‘ri elektron xabarlariga, shu jumladan pochta xizmati yoki aloqa tashkilotlarining aybi yuzaga kelgan nosozliklarga;

– ishtirokchining o‘zining ehtiyotsizligi oqibatida yuzaga kelgan xatolarning har qanday oqibatlariga, shuningdek ishtirokchi tomonidan boshqa ishtirokchiga yetkazilgan zararlarga.

11.3. Ishtirokchilar ushbu Nizom shartlaridan kelib chiqib quyidagilarni tasdiqlaydi:

– ishtirokchilarning yoki uchinchi shaxslarning intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlarini yoki boshqa huquqlarini buzmaganda holda tashkilotchi tomonidan musobaqada ishlab chiqilgan mahsulot taqdimoti, namoyish uchun fayllar, g‘oyalar, tushunchalar, prinsiplar, usullar, tizimlar, usullar, shuningdek ishtirokchilar tomonidan yaratilgan texnik, tashkiliy yoki boshqa vazifalarning yechimlaridan foydalanishi, shu jumladan ularni internet tarmog‘ida ochiq ko‘rish uchun joylashtirish;

– ishtirokchilarga hech qanday qo‘shicha to‘lovlarsiz tashkilotchining xohishiga ko‘ra (ishtirokchining qo‘shimcha ruxsatisiz) musobaqa davomida ishlab chiqilgan mahsulot taqdimotining demo-fayllari, g‘oyalari, tushunchalari, prinsiplari, usullari, jarayonlari, tizimlari, usullari, yechimlari, texnik, tashkiliy ma’lumotlardan foydalanish;

– musobaqa davomida ishlab chiqilgan mahsulotga, demo-fayllar, yaratilgan mahsulot, g‘oyalar, tushunchalar, prinsiplar, usullar, jarayonlar, tizimlar, yechimlar, texnik, tashkiliy yoki boshqa vazifalarning yechimlarga nisbatan uchinchi tomonning davosi bo‘lgan taqdirda, ushbu davolar ishtirokchilar tomonidan mustaqil ravishda tashkilotchini jalb etmagan holda hal etishga majburdirlar.

11.4. Ishtirokchilar tashkilotchiga namoyish fayllaridan foydalanish bo‘yicha eksklyuziv huquqlarni, mahsulot taqdimotini (shu jumladan ko‘paytirish, tarqatish, import qilish, ommaviy namoyish qilish, e’farga uzatish, umumiy ma’lumot uchun aloqa huquqini) o‘tkazadi va Tashkilotchiga taqdim etilgan narsalardan foydalanish huquqini beradi.

V. MUSOBAQANI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TARTIBI

12. Har bir musobaqa uning yo‘nalishlaridan biriga bag‘ishlangan va tegishli sohadagi muammolarni hal qilish uchun loyihalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

13. Musobaqada ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tish tartibi:

13.1. Tashkilotchi tomonidan belgilangan musobaqa boshlanish sanasidan bir oy oldin ishtirokchilarini musobaqa rasmiy veb sayti orqali ro‘yxatdan o‘tishlari boshlanadi.

13.2. Ishtirokchilar tomonidan tashkilotchi tasdiqlagan shakllar asosida elektron ariza taqdim etiladi. Arizada familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash manzili, elektron pochta manzili, telefon raqami, shuningdek boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi zarur. Ishtirokchilar ariza topshirayotgan paytda tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligini tasdiqlaydi.

13.3. Qabul qilish yakunlangandan so'ng topshirilgan arizalar tashkilotchi tomonidan qabul qilinmaydi.

14. Musobaqada ishtirok etadigan jamoalar ro'yxati tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi va musobaqa boshlanishidan yetti kalendar kundan kechiktirmay rasmiy saytga joylashtiriladi. Tashkilotchi jamoadan qo'shimcha ma'lumotlar so'rashga haqli hisoblanadi.

15. Musobaqani o'tkazish dasturida quyidagi tadbirlar nazarda tutiladi:

- ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish;
- jamoani shakllantirish bo'yicha seminar-trening. Jamoa shakllantirmagan ishtirokchilar uchun tashkilotchi tomonidan jamoa shakllantirish;
- musobaqaning ochilishi marosimi;
- vazifani e'lon qilish;
- ishtirokchilarning g'oyalari taqdimoti (besh daqiqadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar);
- mutaxassislar ma'ruzasi;
- jamoalar tomonidan loyiha ishlab chiqish jarayoni (48 soatdan kam bo'lmagan vaqtda);
- jamoalar tomonidan loyiha taqdimoti;
- musobaqa g'oliblarini aniqlash va taqdirlash.

16. Jamoalar musobaqa yakunida loyiha taqdimotini o'tkazadilar. Unda musobaqa komissiyasiga jamoalar taqdimot va loyiha prototipini taqdim etadilar.

17. Musobaqa davomida tashkilotchi tomonidan quyidagilar tashkil etib beriladi:

- yuqori tezlikdagi internet;
- ish joyi;
- dam olish zonasi.

VI. MUSOBAQA G'OLIBLARINI ANIQLASH

18. Musobaqa davomida jamoa ariza topshirishda tanlangan vazifa doirasida loyiha tayyorlashi va prototipini ishlab chiqishi kerak.

19. Ishlab chiqilgan loyiha bo'yicha prototip va taqdimot musobaqa komissiyasiga hakatonning yakuniy kunida tashkilotchi tomonidan musobaqa dasturiga muvofiq ishtirokchilar tomonidan ko'rsatilgan vaqtdan kechiktirmasdan taqdim etilishi zarur.

20. Musobaqa komissiyasi tomonidan baholash uchun taqdim etilgan loyihalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- loyiha prototipining dastur kodining mavjudligi;
- loyiha prototipi ariza berish paytida e’lon qilingan vazifaga mos kelishi kerak.

21. Loyiha prototipi taqdim etilgandan so’ng, jamoa loyihani musobaqa komissiyasiga taqdim etish uchun taqdimot tayyorlaydi. Taqdimot tashkilotchi tomonidan tasdiqlangan shakllar asosida tayyorlanadi. Taqdimot shakli musobaqa rasmi veb saytiga joylashtiriladi. Taqdimotda quyidagilar nazarda tutilgan bo’lishi lozim:

- taqdimot sarlavhasi. Unda yo’nalish va vazifa ko’rsatiladi;
- prototip hal qiladigan mavjud muammoning tavsifi;
- prototip funkcionalligini tavsifi va joriy etish samarasi;
- prototipda ishlatiladigan texnologiyalar va dasturlash tillarining tavsifi;
- ishlab chiqilgan prototipni tijoratlashirishda daromad olish usulining tavsifi;
- jamoa tarkibi va a’zolarining vazifalari.

22. Loyihalarni baholash musobaqa komissiya a’zolari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan amalga oshiriladi.

№	Baholash mezonlari	Balgacha
1.	Prototipning funksional ko’rsatkichlari va muammoni hal qilish tavsifining mavjudligi	20 balgacha
2.	Prototipining arxitekturasi tavsifining mavjudligi	20 balgacha
3.	Iqtisodiyotda prototipni amalga oshirish samarasining mavjudligi	20 balgacha
4.	Prototipni tijoratlashirishda daromad olish usullari va darajasi	20 balgacha
5.	Foydalanish rejalashtirilgan texnologiyalar va dasturlash tillari tavsifining mavjudligi	10 balgacha
6.	Jamoa tarkibining ko’rsatkichi mavjudligi (tavsifi bilan)	10 balgacha
	Jami:	100

23. Yakuniy baho jamoa har bir baholash mezoni bo’yicha to’plagan ballarini qo’shish orqali hisoblanadi.

24. Jamoalar tomonidan loyihalar taqdimotini baholash natijalari bo’yicha musobaqa komissiya har bir vazifa uchun g’oliblar aniqlanadi.

25. Har bir vazifa bo’yicha g’oliblarni aniqlash musobaqa komissiyasining har bir a’zosi tomonidan loyihalarni alohida baholash orqali amalga oshiriladi.

26. Baholar teng bo’lgan taqdirda, musobaqa komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

27. Baholash natijalariga ko’ra tashkilotchi musobaqa komissiyasi qarorining bayonnomasini tuzadi, u musobaqa komissiyasi raisi tomonidan imzolanadi.

28. Musobaqa lotereya emas hamda ishtirok etish uchun to'lovlarni to'lashni talab qilmaydi.

29. G'oliblarini taqdirlash tashkilotchi tomonidan amalga oshiriladi.

30. G'olib jamoalar tashkilotchi tomonidan o'rnatilgan tartibda rag'batlantiriladi

VII. YAKUNIY QOIDALAR

31. Musobaqada ishtirok etish ishtirokchilarning ushbu Nizomda belgilangan qoidalar va talablar to'liq roziligini anglatadi. Ishtirokchi yoki jamoaning ushbu Nizomda belgilangan qoidalar yoki talablarni buzishi yoki ularni to'g'ri bajarishdan bosh tortishi ishtirokchi yoki jamoaning musobaqada qatnashishdan bosh tortishini anglatadi. Bunday holda ushbu shaxslar musobaqa tashkilotchisidan naqd pul yoki boshqa shaklda kompensatsiya olishga haqli emas.

32. Ishtirokchilarning musobaqada ishtiroki etish bilan bog'liq har qanday xarajatlar, shu jumladan, transport xarajatlari (chiptalar) va turar joy xarajatlari tashkilotchi tomonidan qoplab berilmaydi.

33. Musobaqa bilan bog'liq barcha bahsli masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

34. Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash va / yoki tushuntirish bo'yicha yakuniy qaror to'g'ridan-to'g'ri va faqat musobaqa tashkilotchisi tomonidan qabul qilinadi.